

BRIFING



BRIFING

Termiz shahar hokimining o'rinbosari Bunyod Jo'raev ishtirokida "Ko'p qavatli uylarda yashovchi fuqarolarga shirkatlar tomonidan sifatli xizmat ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusida brifing o'tkazildi

Shahar hokimining o'rinbosari Bunyod Jo'raevning "Ko'p qavatli uylarda yashovchi fuqarolarga shirkatlar tomonidan sifatli xizmat ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi axboroti.

Termiz shahrida jami 686 ta ko'p xonadonli uy-joylar mavjud bo'lib, shulardan 414 tasi 1991 yilgacha qurilgan uylar tashkil etadi. Shu kunga qadar shahardagi ushbu ko'p qavatli uy-joylarni 32 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan boshqarib kelinayotgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ-5152-son qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida shahardagi ko'p qavatli uy-joylarga zamonaviy va sifatli kommunal xizmatlar ko'rsatishni tizimli ravishda tashkil qilish uchun og'ir toifadagi XUJMShlarni tugatib uning negizida 15 ta yangi Boshqaruv servis

kompaniyalari tomonidan qamrab olinib, xizmat ko'rsatilmoqda.

Ushbu boshqaruv tashkilotlari XUJMSH dan farqli ravishda ma'muriy binolari, 24 soatlik rejimda ishlaydigan dispechcherlik xizmati, maxsus avtomashinalar, avariyaning bartaraf etish uchun xodimlar bilan to'liq ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish tug'risida"gi PQ-5152-son qarorining 6-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida 2021 yilda Surxondaryo viloyatidagi ko'p kvartirali uy-joylarni mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha MANZILLI ro'yhat ishlab chiqilib, (1-bosqich) "Bog'ishamol" MFY "Alisher Navoiy" ko'chasi 19-uy tom qismi, (2-bosqich) "Turon" MFY Beruniy ko'chasi 2V-uy, "Bog'ishamol" MFY A.Navoiy ko'chasi 13A-sonli tom qismi mukammal ta'mirlash ishlari tugatildi (3-bosqich), Shifokor MFY K.Behzod ko'chasi 123-sonli, "Jayhun" MFY Baxt ko'chasi 1-sonli, "Do'stlik" MFY A.Navoiy ko'chasi 22-sonli ko'p qavatli uylarni tom qismi ko'p qavatli uylarni ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Joriy yilning yanvar va fevral oyida shahar hududida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 15 ta BSK tashabbuslari bilan 3 mingdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlarni ekish ishlarini jadallik bilan olib borilmoqda.